

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

**"IP MANAGEMENT (INTELLEKTUAL MULKNI BOSHQARISH)"
KURSINING
O'QUV DASTURI
(qisqa muddatli kurs)**

2025

I. TASHKILIY-USLUBIY BO'LIM

1.1. Kirish

Mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalari va innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqaviy brendlarni yaratish, kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasining oldini olish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish, sohada sodir etilayotgan huquqbazarliklarga o'z vaqtida chora ko'rish, mualliflarning va boshqa huquq egalarining moddiy manfaatdorligini oshirish, xorijiy kompaniyalarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlarini himoya qilish kabi yo'nalishlarda bir qator masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "IP Management" (Intellektual mulknin boshqarish) o'quv kurslarida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mutaxassislari, aholi va tadbirkorlik subyektlarida o'z intellektual mulk obyektlarini rivojlantirish (milliy va xalqaro muhofaza qilish, brending, rebrending, reklama va boshqalar), ularni fuqarolik muomalasiga kiritish orqali foyda olish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-221-sun qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagи "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 171-sun qarorlariaga asosan ishlab chiqilgan.

1.2. O'quv kursining maqsadi

Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mutaxassislari, aholi va tadbirkorlik subyektlarida o'z intellektual mulk obyektlarini yaratish va rivojlantirish (milliy va xalqaro muhofaza qilish, brending, rebrending, reklama va boshqalar), ularni fuqarolik muomalasiga kiritish orqali foyda olish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

1.3. O'quv kursining vazifalari

Tinglovchilarning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko'nikmalarini rivojlantirish:

Intellektual mulk sohasiga oid umumiy qoidalar;

Intellektual mulknin milliy va xalqaro ro'yxatdan o'tkazish;

Intellektual mulknin rivojlantirish (brending, rebrending, reklama);

Intellektual mulknin tijoratlashtirish;

Intellektual mulknin huquqiy himoya qilish.

1.4. Kutilayotgan natijalar

O'quv dasturini o'zlashtirish tinglovchilarga intellektual mulk sohasiga oid umumiy qoidalar, intellektual mulknin milliy va xalqaro ro'yxatdan o'tkazish, intellektual mulknin rivojlantirish (brending, rebrending, reklama), intellektual mulknin tijoratlashtirish va baholash va huquqiy himoya qilish bo'yicha nazariy bilimlarni o'rganishga zamin yaratadi.

1.5. O'qitish shakli:

an'anaviy yoki masofaviy shakllarda.

1.6. Tinglovchilar kontingenti

Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, aholi va tadbirkorlik subyektlari.

II. O’QUV KURSINING MAZMUNI**2.1. O’quv kursining umumiy va o’quv ishlari turi bo‘yicha hajmi:**

O’quv kursini o’rganish uchun **24 soat** ajratilgan.

2.2. O’quv kursining mavzular rejasi

Modul va mavzular nomi	Mashg‘ulot turlari va ajratilgan soatlar	
	Seminar-trening	Jami
1-modul. Intellektual mulk sohasiga oid umumiy qoidalar		
1. Intellektual mulk huquqi tushunchasi, obyektlari va tarkibiy qismlari	1	1
2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar	1	1
3. Patent huquqi tushunchasi, predmeti, tizimi hamda asosiy qoidalari	1	1
4. O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik tizimi va asoslari. Intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi va innovatsion faoliyatni huquqiy tartibga solish	1	1
5. O‘zbekistonda intellektual mulk sohasida amalgam shirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va sohaviy qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar.	1	1
1-modul bo‘yicha jami	5	5
2-modul. Intellektual mulkni milliy va xalqaro ro‘yxatdan o’tkazish		
6. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va seleksiya yutuqlarining huquqiy muhofazasi.	1	1
7. Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarining huquqiy muhofazasi.	1	1
8. Integral mikrosxemalar topologiyalari, elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi.	1	1
9. Intellektual mulkning xalqaro huquqiy muhofazasi	1	1
10. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazasini ta’minlashda patent vakillarining ishtiroki	1	1
2-modul bo‘yicha jami	5	5
3-modul. Intellektual mulkni rivojlantirish (brending, rebrending, reklama)		
11. Brending. Rebrending. Reklama	1	1
12. Mintaqaviy brendlarni rivojlantirish (geografik ko‘rsatkich misolida)	1	1
13. Sun’iy intellektning asosiy maqsad va vazifalari	1	1
14. 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida	1	1

intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi (<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi PQ-221-soni qarori</i>)		
3-modul bo'yicha jami	4	4
4-modul. Intellektual mulkni baholash va tijoratlashtirish		
15. Intellektual mulk obyektlarini boshqarish va audit qilish. Intellektual mulk obyektlarini baholash asoslari va tartibi	1	1
16. Intellektual mulk obyektlarini baholash va ustav kapitaliga kiritish. Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi	1	1
17. G'oyalarni tijoratlashtirishda tadbirkorlar va intellektual faoliyat egalari hamkorligining ahamiyati	1	1
18. Davlat mablag'lari hisobidan yaratilgan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish masalalari	1	1
19. Intellektual mulk obyektlaridan foydalanish to'g'risidagi litsenziya shartnomalari, shuningdek huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar	1	1
4-modul bo'yicha jami	5	5
5-modul. Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish		
20. Intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlik turlari va nizolarni sudlarda ko'rib chiqish	2	2
21. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi huquqiy himoya qilishning o'ziga xos jihatlari	1	1
22. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishning o'ziga xos jihatlari, jumladan ularning raqamli muhitdagi himoyasi	1	1
23. Ishlab chiqarish siri (nou-xau) va firma nomlari muhofazasining o'ziga xos jihatlari	1	1
5-modul bo'yicha jami	5	5
Jami	24	24
2.3. O'quv materialining mazmuni		
1-modul. INTELLEKTUAL MULK SOHASIGA OID UMUMIY QOIDALAR		
1. Intellektual mulk huquqi tushunchasi, obyektlari va tarkibiy qismlari.		
<p>Asosiy masalalar: Intellektual mulk huquqining vujudga kelish tarixi. Intellektual mulk obyektlarining tasnifi va turlari. Intellektual mulk huquqining o'ziga xos institutlari. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan qo'yiladigan talablar.</p>		
2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar.		
<p>Asosiy masalalar: Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi. Mualliflar huquqlari. Shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda mulkiy huquqlar. Mualliflik huquqini himoya qilish muddatlari. Hammualliflik. Xizmat asarlariga nisbatan mualliflik huquqining qo'llanilishi.</p>		
3. Patent huquqi tushunchasi, predmeti, tizimi hamda asosiy qoidalari.		
<p>Asosiy masalalar: Patent huquqi tushunchasi. Patent huquqi tizimi. Patent huquqining subyektlari va obyektlari. Patent huquqining manbalari. Patent huquqlarining turlari. Patent</p>		

himoyasi asoslari. Patent egasi mutlaq huquqining buzilishi sifatida e'tirof etilmaydigan holatlar. Patent huquqining qoidalari. Patent huquqi qoidalarni tasniflash.

4. O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik tizimi va asoslari. Intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi va innovatsion faoliyatni huquqiy tartibga solish.

Asosiy masalalar: Intellektual mulk huquqiga oid nazariy qarashlar. Intellektual mulk huquqining qonunchilik asoslari. Intellektual mulk huquqining tizimi. Intellektual mulk huquqini himoya qilishda davlat organlarining ishtiroki. Intellektual mulk huquqini davlat tomonidan boshqarish. Intellektual mulk obyeklarini innovatsion faoliyatga tadbiq etish. Innovatsion faoliyat asoslarini huquqiy himoya qilish va tijoratlashtirishni takomillashtirish.

5. O'zbekistonda intellektual mulk sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va sohaviy qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar.

Asosiy masalalar: O'zbekistonda intellektual mulk sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati. So'nggi yillarda sohaviy qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar.

2-modul. INTELLEKTUAL MULKNI MILLIY VA XALQARO RO'YXATDAN O'TKAZISH

6. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va seleksiya yutuqlarining huquqiy muhofazasi.

Asosiy masalalar: Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va seleksiya yutuqlari tuchunchasi va huquqiy muhofazasining ahamiyati. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlarini milliy ro'yxatdan o'tkazish. Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portalı. Ixtiro va foydali modelga patent olish uchun talabnomalar tuzishning umumiy qoidalari. Ixtiro va foydali modelga patent olish uchun talabnomani rasmiylashtirish tartibi. Dastlabki va mohiyati bo'yicha ekspertiza tushunchasi. Sanoat namunasiga muhofaza olish uchun talabnomalar to'ldirish va topshirish tartibi.

7. Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilarining huquqiy muhofazasi.

Asosiy masalalar: Tovar belgisini huquqiy jihatdan muhofaza qilish. Tovar belgisini milliy ro'yxatdan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari. Hammaga ma'lum tovar belgilari. Tovar belgisini ro'yxatga olish uchun talabnomalar tuzish. Talabnomalar topshirish tartibi. Tovar va xizmatlarning xalqaro tasnifi. O'zbekiston Respublikasida hammaga ma'lum belgilariga huquqiy muhofaza olish.

8. Integral mikrosxemalar topologiyalari, elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi.

Asosiy masalalar: Integral mikrosxemalar topologiyasi tushunchasi va maqomi. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar tushunchasi. Ma'lumotlar bazasi tushunchasi. Integral mikrosxemalar topologiyalarini ro'yxatdan o'tkazish qoidalari. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnomalar tuzish qoidalari.

9. Intellektual mulkning xalqaro huquqiy muhofazasi.

Asosiy masalalar: Intellektual mulk sohasida xalqaro huquqning ustuvorligi va o'ziga xos jihatlari. Intellektual mulk huquqini xalqaro-huquqiy himoya qilishga qaratilgan O'zbekistonning ikki va ko'p tomonlama shartnomalari. Mualliflik huquqi va turdosh

huquqlar sohasidagi xalqaro shartnomalarning mazmun-mohiyati. Sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi xalqaro shartnomalar va bitimlar. Ixtiro va foydali modellarni xorijiy mamlakatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi. e-PCT tizimining mohiyati. Madrid bitimiga bayonnomalar asosida tovar belgisini chet elda ro‘yxatdan o‘tkazish. Intellektual mulk huquqiga oid xalqaro shartnomalarning O‘zbekistonda ijro etilishini monitoring qilish. Intellektual mulk huquqini xalqaro doirada himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning ishtiroki.

10. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazasini ta’minlashda patent vakillarining ishtiroki.

Asosiy masalalar: Patent vakillari faoliyati hamda intellektual mulk obyektlari muhofazasidagi ishtiroki. Patent vakillarini attestatsiya va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi. Patent vakillarining ixtisoslashuvi va uning ahamiyati.

3-modul. INTELLEKTUAL MULKNI RIVOJLANTIRISH (BRENDING, REBRENDING, REKLAMA)

11. Brending. Rebrending. Reklama.

Asosiy masalalar: Stil yoki brend. Brend (ing. Brand). Brend — nom, slogan, logos, ranglar, simvollar, stili va boshqa vizual atributlar. Stil (ing. Style). Restayling (ingl. — Restyling). Brend va stilning bir-biridan farqi.

Rebrending tushunchasi. Qaysi holatda rebrending zarur? Rebrendingning sabablari. Rebrending vazifalari. Rebrendingning bosqichlari va xususiyatlari. Qayta joylashtirish. Paketni qayta loyihalash. Brend aloqa tizimini qayta qurish. Logotip rebrendingi (logotipni yangilash, takomillashtirish yoki to‘liq qayta ishlab chiqish). Ismni o‘zgartirish - brend nomini rebrending qilish. Restayling va qayta joylashtirishdan farqi

Reklama haqida umumiy ma’lumot. Reklama turlari. Reklamaning qo’llanilish usullari.

12. Mintaqaviy brendlarni rivojlantirish (geografik ko‘rsatkich misolida).

Asosiy masalalar: Geografik ko‘rsatkichlarni huquqiy muhofazaga olish. Geografik ko‘rsatkichni mintaqaviy brend sifatida shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari. Geografik ko‘rsatkichlarni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.

13. Sun’iy intellektning asosiy maqsad va vazifalari.

Asosiy masalalar: Sun’iy intellekt – texnologik rivojlanish asosi. Sun’iy intellektni ilm-fanga joriy etish. Sun’iy intellekt sohasida ilmiy-texnik taddiqotlar va innovatsion ishlanmalar. Sun’iy intellektning biznesdagi va axborot texnologiyalardagi o‘rni. Sun’iy intellektning asosiy maqsad va vazifalari

14. 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi PQ-221-sod qarori asosida).

Asosiy masalalar: Umumiy qoidalar. Strategiyaning maqsad va vazifalari. Strategiyaning asosiy yo‘nalishlari.

4-modul. INTELLEKTUAL MULKNI BAHOLASH VA TIJORATLASHTIRISH

15. Intellektual mulk obyektlarini boshqarish va audit qilish. Intellektual mulk obyektlarini baholash asoslari va tartiblari.

Asosiy masalalar: Intellektual mulk obyektlarini boshqarish. IP audit. WIPO IP Diagnostics vositasi. Intellektual mulk obyektlarini identifikatsiya qilish, baholash

yondashuvlari, baholash usullarini tanlash, baholashni asoslash va qo'llash: daromadli, qiyosiy va xarajatli usullari, yaratish (boshlang'ich xarajatlar) qiymati usuli, tiklash xarajatlari qiymati usuli, almashtirish qiymati usuli.

16. Intellektual mulk obyektlarini baholash va ustav kapitaliga kiritish. Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi.

Asosiy masalalar: Intellektual mulkni baholash. Intellektual mulk obyektlarining narxini baholash usullari va ustav kapitaliga kiritish qoidalari. Intellektual mulkni baholash tartibi. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar. Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning milliy va xalqaro amaliyoti. Innovatsion faoliyat va texnologiyalar transferi. Intellektual mulk obyektlarini boshqarish tamoyillari. Intellektual mulk obyektlarini xo'jalik muomalasiga kiritish masalalari. Intellektual mulk obyektini garovga qo'yish. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish, nomoddiy aktivlarning tushunchasi, ularni turkumlash, baholash, kirimga olish, hujjatlashtirish, gudvil, gudvil hisobi, balansda aks ettirish, schyotlarda yuritish, amortizasiya hisoblash, inventarizasiya qilish va moliyaviy hisobotlarda ohib berish.

17. G'oyalarni tijoratlashtirishda tadbirkorlar va intellektual faoliyat egalari hamkorligining ahamiyati.

Asosiy masalalar: Tadbirkorlik subyektlarining amaliy ehtiyojlari asosida intellektual mulk yaratish. Yangi texnik yechimlardan foydalanish orqali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish. Buyurtma asosida intellektual faoliyat natijalarini yaratish va bu jarayonning huquqiy asoslari. Yaratuvchilar va tadbirkorlar o'rtasida tuziladigan kelishuvlar, shartnomalar va tijorat aloqalarining shakllari hamda ularning huquqiy asoslarini tahlil qilish.

18. Davlat mablag'lari hisobidan yaratilgan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish masalalari.

Asosiy masalalar: Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish va baholash masalalari. Davlat mablag'lari hisobidan yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tartibi

19. Intellektual mulk obyektlaridan foydalanish to'g'risidagi litsenziya shartnomalari, shuningdek huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar.

Asosiy masalalar: Intellektual mulk obyektlaridan foydalanish to'g'risidagi litsenziya shartnomalari, huquqlarni to'liq yoki qisman o'kazish to'g'risidagi shartnomalar, ularning tasnifi, mazmuni, litsenziya shartnomalarining turlari. Litsenziya shartnomalari va huquqlarni o'tkazish shartnomalarining huquqiy va iqtisodiy mohiyati.

5-modul. INTELLEKTUAL MULKNI HUQUQIY HIMOYA QILISH

20. Intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlik turlari va nizolarni sndlarda ko'rib chiqish.

Asosiy masalalar: Intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlik turlari. Intellektual mulkka oid ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ishlarni jinoyat sndlarda ko'rish tartibi. Intellektual mulkka oid jinoiy javobgarlik bo'yicha ishlarni jinoyat ishlari bo'yicha sndlар tomonidan ko'rib chiqish tartibi. Intellektual mulkka oid fuqarolik-huquqiy nizolarni sndlarda ko'rib chiqish.

21. Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisini huquqiy himoya qilishning o‘ziga xos jihatlari.

Asosiy masalalar: Tovar belgilarini huquqiy himoya qilishning o‘ziga xos jihatlari. Insofsiz raqobat. Insofsiz raqobatni yuzaga keltirganlik uchun javobgarlik masalasi. Tovar belgisi bilan bog‘liq ishlarni jinoyat ishlari bo‘yicha, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda, shuningdek, Adliya vazirligining Apellyatsiya kengashida ko‘rib chiqish.

22. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishning o‘ziga xos jihatlari, jumladan ularning raqamli muhitdagi himoyasi.

Asosiy masalalar: Mualliflik huquqini tasdiqlash usullari (deponentlash, notarial tasdiqlash, avtomatik huquq paydo bo‘lishi asoslari). Mualliflik shartnomalarining huquqiy ahamiyati va ular orqali huquqlarni himoya qilish imkoniyatlari. Mualliflik huquqini buzganlik uchun tovon talab etish, moddiy va ma’naviy zararlarni undirish tartibi. Turdosh huquqlarga (ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar, eshittirish tashkilotlari) oid himoya choralar. Raqamli muhitda (internet, raqamli platformalar va elektron axborot resurslari) mualliflik huquqlarining buzilishi holatlari va ushbu holatlarning oldini olish choralar va ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda boshqalar.

23. Ishlab chiqarish siri (nou-xau) va firma nomlari muhofazasining o‘ziga xos jihatlari.

Asosiy masalalar: Ishlab chiqarish siri (nou-xau) va firma nomlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish. Nou-xauning huquqiy muhofazasining ta’minalash tartibi va asoslari. O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida”gi qonuni.

III. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

3.1. O‘qish shakli: an’anaviy yoki masofaviy shakllarda

3.2. O‘qitish texnologiyasi: oliv ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, aholi va tadbirkorlik subyektlarining intellektual mulkni boshqarish faoliyati kasbi bo‘yicha o‘qitish. Interfaol o‘qitish texnologiyasi – tinglovchilarning o‘quv mashg‘ulotlarida o‘zaro hamkorlik qilishlari hamda faol qayta aloqa shakllaridan foydalangan holda tegishli o‘quv mashqlarini bajarish.

3.3. Ta’lim texnologiyasi yoki uslublarining turlari:

O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo‘naltirilgan zamonaviy shakllari – muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishslash (“aqliy hujum” interfaol uslubini qo‘llagan holda va h.k.), intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish bilan bog‘liq hujjatlar loyihalarini tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar qo‘llaniladi.

O‘qish jarayonida klinik ta’lim, nizoli jarayonlarning imitatsiyasi hamda sayyor mashg‘ulotlar qo‘llanilishi mumkin.

IV. O‘QUV KURSINING O‘QUV-USLUBIY VA MODDIY TEXNIK TA’MINOTI

4.1. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Normativ-huquqiy hujjatlar

Nº	Nomi	Turi	Sanasi
1	O‘zbekiston Respublikasining	Konstitutsiya	2023-yil

	Konstitutsiyasi		30-aprel.
2	Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2001-yil 30-avgust
3	Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2002-yil 29-avgust
4	Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2006-yil 20-iyul
5	Seleksiya yutuqlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2002-yil 29-avgust
6	Firma nomlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2006-yil 8-sentyabr
7	Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2001-yil 12-may
8	Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoyasi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	1994-yil 6-may
9	Elektron hukumat to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2015-yil 9-dekabr
10	Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2017-yil 3-yanvar
11	Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2017-yil 7-sentyabr
12	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2017-yil 11-sentyabr
13	Mediatsiya to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	2018-yil 3-iyul
14	Jinoyat kodeksi	O'zbekiston Respublikasi Kodeksi	1994-yil 22-sentyabr
15	Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks	O'zbekiston Respublikasi Kodeksi	1994-yil 22-sentyabr
16	Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks	O'zbekiston Respublikasi Kodeksi	2018-yil 25-yanvar
17	Fuqarolik protsessual kodeksi	O'zbekiston Respublikasi Kodeksi	2018-yil 22-yanvar
18	Iqtisodiy protsessual kodeksi	O'zbekiston Respublikasi Kodeksi	2018-yil 24-yanvar
19	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son
20	Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni	2022-yil 17-martdagি PF-89-son

	to‘g‘risida		
21	Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son

O‘quv adabiyotlari

Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Okyulov, yu.f.d. (PhD), dotsent N.E.Gafurova // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti , 2019. – 588 bet.

Intellectual property: Law & the information society. Cases & Materials. Fifth Edition, 2021. / James Boyle - William Neal Reynolds, Professor of Law Duke Law School; Jennifer Jenkins - Clinical Professor of Law (Teaching) & Director, Center for the Study of the Public Domain, Duke Law School. // Copyright ©2021 James Boyle and Jennifer Jenkins.

“В хорошей компании”. Вопросы интеллектуальной собственности в франчайзинге. / Серия “Интеллектуальная собственность для бизнеса”. Номер 5. // WIPO, 2019. Всемирная организatsія интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland. / ISBN: 978-92-805-2491-8.

От бумаги до цифровой платформы: Издательское дело, интеллектуальная собственность и цифровая революция. // WIPO, 2019. Всемирная организatsія интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland. /DOI: 10.34667/tind.47042. ISBN: 978-92-805-3448-1 (печатная версия). ISBN: 978-92-805-3449-8 (онлайновая версия).

Коммерциализatsія идей. Руководство по интеллектуальной собственности для стартапов. // WIPO, 2019. Всемирная организatsія интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland. /ISBN: 978-92-805-3282-1. DOI: 10.34667/tind.44185.

Ежегодный обзор Мадридской системы, 2023 год (резюме). Международная регистрація знаков // WIPO, 2023. Всемирная организatsія интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland.

Понимание авторского права и смежных прав // World Intellectual Property Organization 34, chemin des Colombettes, P.O. Box 18. CH-1211 Geneva 20, Switzerland. / ISBN: 978-92-805-2804-6.

Что такое интеллектуальная собственность ? // WIPO, 2020. Всемирная организatsія интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland. / ISBN 978-92-805-3223-4.

Toshev B.N., Nabiev F. Intellektual mulk huquqi: tovar belgilarining huquqiy muhofazasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2019.

Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi: umumiy qoidalar va alohida obyektlar. Darslik. – T., 2003.

G‘afurov A.B. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning dolzarb masalalari. Monografiya. – T., 2017.

4.2. Internet resurslar (ma’lumotlar bazalari, axborot tizimlari):

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalı: www.gov.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati sayti: www.senate.gov.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sayti www.ksu.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sayti: www.supcourt.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti: www.minjust.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portali www.ip.adliya.uz.

Butunjahon Intellektual mulk Tashkiloti huquqiy hujjatlar bazasi www.wipo.int/wipolex

4.3. O‘quv dasturini o‘zlashtirish va ta’lim jarayonlarini ta’minlashga mo‘ljallangan o‘quv va o‘quv-metodik materiallar

O‘quv materiallari: ma’ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va o‘quv kursi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, tarqatma materiallar; multimedia materiallari (slaydlar, prezentatsiyalar va boshqalar).

O‘quv-metodik materiallar: test (yoki nazorat savollari) yoxud masofaviy topshiriqlar; amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va boshqalar).

O‘quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta’mnoti: shaxsiy kompyuter – o‘qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi; “ppt (pptx)”, “doc (docx)”, “xlsx”, “mp3” va boshqa formatdagi fayllar bilan ishslash uchun dasturiy ta’motlar; multimedia qurilmasi, ekran yoki smart-televizor.

O‘quv materiallari Axborot-resurs markazida bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.

VI. TINGLOVCHILAR UCHUN O‘QUV DASTURINI O‘ZLASHTIRISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR

O‘quv mashg‘ulotlari ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va trening shaklida tashkil etiladi.

O‘quv mashg‘ulotlari tinglovchilarda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish va boshqarish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Tinglovchilar o‘qish davrida elektron shakldagi o‘quv-metodik materiallar bilan ta’milanadi.

Tegishli axborot-metodik va tashkiliy-texnik baza mavjud bo‘lgan taqdirda, o‘quv kurslari masofadan o‘qitish usullari qo‘llanilgan holda tashkil etilishi mumkin.

O‘quv kursi yakunida tinglovchilar tomonidan yakuniy imtihon topshiriladi.

O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.